

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/28.08.2024.Qx.181.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JANUBIY DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

SHODIYEV SHERZOD SHOMILJON O‘G‘LI

**MOSH EKINI (*VIGNA RADIATE*)NING ISSIQLIKKA CHIDAMLI,
HOSILDOR VA OQSILGA BOY YANGI BOSHLANG‘ICH
MANBALARINI YARATISH**

06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Shodiyev Sherzod Shomiljon o‘g‘li

Mosh ekini (*Vigna radiate*)ning issiqlikka chidamli, hosildor va oqsilga boy yangi boshlang‘ich manbalarini yaratish.....3

Шодиев Шерзод Шомилджон углы

Создание нового исходного материала маша (*Vigna radiata*) на жароустойчивость, урожайность и с высоким содержанием белка.....21

Shodiyev Sherzod Shomiljon oglu

Creating new starting sources heat-resistan, grain yield and rich in protein of mungbean (*Vigna radiate*).....40

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/28.08.2024.Qx.181.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JANUBIY DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

SHODIYEV SHERZOD SHOMILJON O‘G‘LI

**MOSH EKINI (*VIGNA RADIATE*)NING ISSIQLIKKA CHIDAMLI,
HOSILDOR VA OQSILGA BOY YANGI BOSHLANG‘ICH
MANBALARINI YARATISH**

06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Qx812 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (tdmau.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ZiyoNet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ziyadullayev Zoxidjon Fayzullayevich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nadjiyev Jo‘raxon Norsaidovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Nahalboyev Jahongir Tursunboyevich
qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi PhD.03/28.08.2024.Qx.181.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____, soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:190100, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri Islom Karimov ko‘chasi № 284-uy. Tel: +99876-221-87-20; e-mail: info@tdmau.uz; Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti 3-o‘quv binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№____ -raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:190100, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri Islom Karimov ko‘chasi № 284-uy. TerDMAU Tel: +99876-221-87-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

N.J.Nurmatov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., professor

Sh.M.Jumayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, q.x.f.f.d., dotsent

M.X.Aramov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida “dukkakli don ekinlari 91,6 mln gektar maydonga ekilib, o‘rtacha don hosildorligi 12,0 s/ga, yalpi hosil 206,4 mln tonnani tashkil etmoqda”¹. Shundan “mosh 7,3 mln gektarga yaqin maydonga ekilib, yalpi hosili 5,3 mln tonnani tashkil qiladi”². Moshni yetishtiruvchi va iste‘molchi davlatlar Hindiston, Pokiston, Xitoy, Indoneziya, Vetnam, Koreya, Yaponiya, Misr, Efiopiya, Eron, Afg‘oniston va Avstraliya hisoblanadi. O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Kavkaz va Janubiy Qozog‘istonda kichik maydonda asosiy ekin yoki kuzgi bug‘doydan keyin takroriy ekin sifatida ekiladi. Mosh seleksiyasi sohasida dunyo miqyosida hosildorligi yuqori, ertapishar va geterozis duragay navlari yaratilib, ishlab chiqarishga joriy etilgan. Biroq, issiqlikka chidamli, yuqori hosildor va oqsil miqdori yuqori bo‘lgan yangi boshlang‘ich manbalarni yaratish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda global iqlimning sezilarli darajada o‘zgarishi va yog‘in miqdorining kam bo‘lishi, havo haroratining haddan tashqari issib ketishi dukkakli ekinlarning o‘suv davri davomida katta ta‘sir ko‘rsatib, hosildorlik va sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi tadqiqotchilari va seleksioner olimlar oldidagi eng muhim muammolardan bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda seleksioner olimlarning oldida turgan asosiy vazifalardan biri issiqlikka chidamli, hosildor va oqsilga boy genotiplarni va chatishtirish uchun ota ona shakllarni to‘g‘ri tanlash va yangi boshlang‘ich manbalarini yaratish muhim vazifalarini kasb etadi.

Respublikamizda bugungi kunda jami 257 ming 196 gektar maydonga mosh ekini yetishtirilmoqda. Shundan, 19 ming 538 gektari asosiy, 228 ming 351 gektari takroriy maydonga hamda bog‘ va tok qator oralariga 9 ming 307 gektar maydonda ekilib, o‘rtacha hosildorligi 14,6 s/ga tashkil etmoqda. Shuni hisobga olib, tuproq unumdorligini yaxshilash hamda qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, aholining kundalik oziq-ovqat tarkibida oqsil, vitamin, mikroelementlar va foydali moddalarga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son farmonlarida vazifalar belgilab berilgan³. Bu borada, respublikada dukkakli ekinlardan moshning issiqlikka chidamli, ertapishar, hosildor va oqsil miqdori yuqori bo‘lgan yangi boshlang‘ich manbalarini va navlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida urug‘chilik tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3683-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-fevraldagi “Urug‘chilik to‘g‘risida”gi O‘RQ-521-

¹ <https://staff.tiiame.uz/storage/users/614/articles/gJ2Dbjy2IJpfdZTTPcPxuDacEhcothHDjCcSKNR>.

² https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-20008-4_1

³ <https://lex.uz/docs/-4567334>

sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-106-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni hamda mazkur sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mosh o‘simligi seleksiyasi bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan Hindistonda R.M.Nair, G.Singh, R.Kumawa, L.Chikukura, G.S.S.Xattak, R.Kaur, K.Sandhular tomonidan mosh nav namunalarning abiotik va biotik omillarga chidamli, morfologik, fiziologik jarayonlarini va yangi yaratilgan duragay avlodlarda qimmatli belgi xususiyatlarini irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi o‘rganilgan. Xitoylik olimlar Z.Yi-Shen, S.Shuai, L.Wanglar tomonidan esa uning urug‘i tarkibidagi kimyoviy elementlari aniqlanib uning xususiyatlari va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati o‘rganilgan. Vetnamlik olim T.Van Giang tomonidan genotiplarning atrof-muhit ta‘sirini va Indoneziyalik olim I.R.Trustinah esa genetik xilma-xilligi, belgi va xususiyatlarini irsiylanish o‘zgaruvchanligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Lekin, Qashqadaryo viloyatida olimlar tomonidan moshning hosildor, ertapishar, issiqlikka chidamli hamda oqsil miqdori yuqori bo‘lgan boshlang‘ich manbalarini yaratish bo‘yicha yetarli ilmiy-tadqiqotlar ishlari amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot rejasining 2020-yil 4-dekabrda №1/16-1 sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Mosh ekini (*Vigna radiata*)ning issiqlikka chidamli, hosildor va oqsilga boy yangi boshlang‘ich manbalarini yaratish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari “Dukkakli va moyli ekinlar seleksiyasi” laboratoriyasi ish dasturining “Qurg‘oqchilik va yuqori harorat sharoitida seleksiya uchun mos dukkakli va moyli ekinlarning agrobiologik belgilari, urug‘laridagi oqsil, yog‘ miqdori yuqori va hosildor istiqbolli genotiplarni tanlash” doirasida bajarilgan (2021-2023-yy.).

Tadqiqotning maqsadi: Respublikaning janubiy hududlari (Qashqadaryo viloyati) sug‘oriladigan maydonlarida ekish uchun mos bo‘lgan, mosh (*Vigna radiata*) o‘simligining issiqlikka chidamli, hosildor va oqsil miqdori yuqori bo‘lgan yangi boshlang‘ich manbalarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

hosildor, issiqlikka chidamli va oqsil miqdori yuqori bo‘lgan mahalliy va xorijiy mosh nav namunalardan boshlang‘ich manba sifatida foydalanish asosida chatishtirish ishlarini o‘tkazish;

birinchi (F_1) va ikkinchi (F_2) avlod duragay kombinatsiyalarda qimmatli xo‘jalik belgi va xususiyatlarini irsiylanishi, o‘zgaruvchanligini tahlil qilish;

mosh nav namunalari laboratoriya sharoitida issiqlikka bardoshlilikini baholash hamda chidamli namunalarni tanlash;

laboratoriya sharoitida mosh nav namunalari donidagi oqsil miqdorini aniqlash;

tanlab olingan tizmalar asosida issiqlikka chidamli, hosildorligi hamda oqsil miqdori yuqori bo‘lgan moshning yangi boshlang‘ich manbalarini yaratish va seleksiya ishlariga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida moshning jahon kolleksiya materiallaridan olingan 50 ta nav va tizmalar, mahalliy sharoitda duragaylash natijasida yaratilgan 20 ta duragay kombinatsiyalari, 16 ta donor nav tizmalar va andoza “Durдона” navi olingan.

Tadqiqotning predmeti mosh nav va tizmalarida duragaylash ishlari, o‘simlik bo‘yi, dukkak uzunligi, bir dukkakdagi donlar soni, bir tup o‘simlikdagi dukkaklar soni, 1000 dona don o‘g‘irligi, o‘suv davri, pastki dukkaklar joylashuvi belgilarining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi tahlillari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dala va laboratoriya tajribalari, biometrik o‘lchashlar, fenologik kuzatish va turli tahlillar «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», o‘simliklarning issiqlikka chidamliligi «Методы оценки устойчивости растений к неблагоприятным условиям среды», chatishtirishda gullarni bichish va bir vaqtda ota changchilarini qo‘yish «Mungbean hybridization technique» (M.Boling) uslubi, dominantlik darajasi (h_p) ko‘rsatkichining katta-kichikligi S.Wright, (h^2) va T.Lash formulasi, korrelyatsiya darajasi Mordekey Kara, Foks uslubida, 1000 ta don vazni GOST 10842-89, oqsil miqdori GOST 10846-91 bo‘yicha hamda tajriba natijalarining statistik-dispersion tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida «Методика полевого опыта» (Б.А.Доспехов) qo‘llanmasi bo‘yicha amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida mosh ekinining issiqlikka chidamli, hosildor va oqsil miqdori ko‘rsatkichi bo‘yicha 6 ta nav 10 ta namunada duragaylash jarayonida boshlang‘ich manba sifatida foydalanilgan va 20 ta duragay avlodlar olingan;

F_1 - F_2 duragay avlodlarda ertapisharlik xususiyati nasldan-naslga o‘tishida 12 ta kombinatsiyada, pastki dukkaklar joylashishi 10 ta kombinatsiyada, o‘simlik bo‘yining uzunligini 11 ta kombinatsiyada, 1000 dona don vazni 4 ta kombinatsiyada qimmatli xo‘jalik belgi va xususiyatlarining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi aniqlangan;

issiqlikka chidamli bo‘lgan 7 ta nav va tizmalari andoza “Durдона” naviga nisbatan yuqori temperaturada barg tarkibidagi oqsilning koagulyatsiyalanishi $+57,6$ $+60,3$ °C gacha yuqori temperaturada bo‘lganligi qayd etilgan va ilmiy asoslangan;

laboratoriya sharoitida 7 ta mosh tizmalarida oqsil miqdori andoza “Durдона” naviga nisbatan yuqori bo‘lgan va u 28,6-29,3 % ni tashkil etganligi aniqlangan;

duragaylash natijasida qimmatli belgi va xususiyatlari yuqori bo'lgan boshlang'ich ashyolar tanlab olingan. Issiqlikka chidamli, hosildorligi va oqsil miqdori yuqori bo'lgan yangi Zumrat navi yaratilgan va Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash markaziga topshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

laboratoriya sharoitida andoza "Durдона" naviga nisbatan issiqlikka chidamli va hosildor mosh (*Vigna radiata*) o'simligining nav va tizmalari tanlab olingan;

mosh (*Vigna radiata*) ning ertapishar, oqsil miqdori yuqori, bo'lgan boshlang'ich manbalar tanlab olingan, chatishtirish yo'li bilan qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan 20 ta duragay avlod yaratilgan va amaliy seleksiyada boshlang'ich manba sifatida foydalanish tavsiya qilingan;

respublikaning janubiy mintaqasiga moslashgan issiqlikka bardoshli, hosildor va oqsil miqdori yuqori bo'lgan moshning "Zumrat" navi (KR21-MUNGPYT-IR-35) yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining umum qabul qilingan hamda zamonaviy uslubiy qo'llanmalar asosida o'tkazilganligi, nazariy va amaliy ko'rsatkich natijalari bir-birini tasdiqlaganligi, olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berilganligi, aprobatsiyadan o'tkazilib yuqori baholanganligi, respublika va xorijiy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, tajriba natijalarining ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruzalarda muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mosh nav va tizmalarini o'zaro chatishtirish asosida yaratilgan F₁ duragaylarida asosiy qimmatli xo'jalik belgi va xususiyatlarning ijobiy va salbiy oraliqda irsiylanishi, F₂ avloddan boshlab genetik jihatdan keng o'zgaruvchanlikning yuzaga chiqishi tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qimmatli xo'jalik belgi va hususiyati yuqori bo'lgan, hosildor, oqsilga boy, va issiqlikka chidamli tizmalarini ajratib olish va seleksiyaning keyingi bosqichlarida baholash ishlarini davom ettirib, yangi nav yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mosh ekini (*Vigna radiata*)ning issiqlikka chidamli, hosildor va oqsilga boy yangi boshlang'ich manbalarini yaratish hamda amaliy seleksiyaga tavsiya etish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

2021-2023 yillar davomida moshning tanlov sinov ko'chatzorida issiqlikka chidamliligi va don hosildorligini yuqori bo'lgan yangi "Zumrad" navi yaratilib, urug'chilik tizimini kengaytirish maqsadida 2024-yilda Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutidagi Qarshi tajriba dala maydonida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrda №05/05-03/424-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, andoza Durдона naviga nisbatan 2,6 sentner yuqori hosil olingan va tanlab olingan navi 2024-yilda Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash markaziga topshirilgan.

yangi yaratilgan moshning “Zumrat” navi Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi “Choriyev Mardon Nomozovich” fermer xo‘jaligida 1,8 gektar, “Omonov Hamudulla Nayimovich” fermer xo‘jaligida 1,6 gektar maydonga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrda №05/05-03/424 sonli ma’lumotnomasi). Natijada andoza “Durdona” naviga nisbatan, “Zumrat” navidan 2,3-2,5 s/ga gacha yuqori hosil olingan.

moshning “Zumrat” navi Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani sharoitida jami 3,4 gektar hamda Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutidagi Qarshi tajriba dala maydonida 2,1 gektarga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrda №05/05-03/424-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, 18,6-20,7 sentner mosh hosili yetishtirilib, gektaridan sof daromad 10286-11186 ming so‘m olinib, rentabellik darajasi 67,1-80,8 % ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala va laboratoriya sharoitlarida o‘tkazilgan tajribalar Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon qilingan, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya hajmi va tarkibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Moshning xususiyatlari, xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va qimmatli belgi va xususiyatlarining irsiylanishi**” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi yuzasidan respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlarining mosh (*Vingna radiata*) morfologik xususiyatlari va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati,

mosh seleksiyasi sohasida bajarilgan ilmiy ishlar, issiqlik stress ostida hosildorlik va hosil elementlarini shakllanishi, don sifat ko'rsatkichlari, moshning qimmatli belgi va xususiyatlarining irsiylanish bo'yicha olingan ma'lumotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazilgan joy, tuproq iqlim sharoiti, materiallar va uslubiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar olib borilgan joy va uning tuproq-iqlim sharoit, obyeksi va uslublar, tadqiqotlarda foydalanilgan boshlang'ich manbalarning tahliliy natijalari, seleksion va statistik usullar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Moshning F₁ – F₂ avlodlarida qimmatli-xo'jalik belgilarning irsiylanish va o'zgaruvchanligi”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotda foydalanilgan duragaylash usuli va uning natijalari, hosil bo'lgan F₁ duragay avlodlarida irsiylanish qonuniyatlari, F₂ duragay avlodlarida belgilarning o'zgaruvchanligi va irsiylanishi, ota-ona shakllarining genetik jihatdan xilma-xilgi bo'yicha tahliliy natijalar keltirilgan.

Moshning biologik ko'chatzoridagi nav va tizmalar ishtirokida 20 ta kombinatsiyada 2021-yilning may oyining 26-29 sanalarida chatishtirish ishlari o'tqazildi. Duragaylashda tanlab olingan onalik o'simliklarning 15 ta gullarini bichish ishlari ya'ni (changchilarini olib tashlash) va bir vatq o'zida tanlab olingan otalik o'simlikning changchilari yordamida changlantirish tongi soat (6³⁰- 9⁰⁰), tush vaqti (9³⁰- 11³⁰) va kechgi soat (14⁰⁰- 16⁰⁰) va (16³⁰- 18³⁰) vaqtda ishlari amalga oshirilgan.

Birinchi avlod (F₁) duragay o'simliklarni o'suv davrining irsiylanishi tahlil qilinganda ota-ona belgilariga nisbatan 5ta KR21-MUNGPYT-IR-11 x Durdona, Radost x Durdona, KR21-MUNGPYT-IR-37 x KR21-MUNGPYT-IR-35, Radost x Durdona, KR21-MUNGPYT-IR-37 x Radost duragay kombinatsiyalarida dominantlik darajasi eng yuqori (hp=3-25) ko'rsatkichga ega bo'lib kuchli ijobiy geterozis namoyon bo'lganligi kuzatildi.

O'simlik bo'yi irsiylanish tiplari tahlil qilinganda o'rganilgan 20 ta duragay kombinatsiyaning 17 tasida kuchli ijobiy geterozislik holatni va 3 ta duragaylarda salbi geterosizlik kuzatildi. Bunda belgi ko'rsatkichlari bo'yicha bir - biridan farq qiluvchi Durdona x Qahrabo (hp=17,8), Qahrabo x Radost (hp=13,9), KR21-MUNGPYT-IR-14 x Durdona (hp=16,6), KR21-MUNGPYT-IR-15 x Durdona (hp=19,6), Baraka x Durdona (hp=22,4) duragaylarda mazkur ko'rsatkichi kuchli dominantlik holda irsiylanganligi aniqlandi.

Birinchi avlod (F₁) duragaylarida dukkak uzunligi belgisi bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra ota-ona belgilariga nisbatan 20 ta duragaylardan 17 tasida hp darajasi 1 dan 17 gacha bo'lib, ya'ni mazkur ko'rsatkichi bo'yicha kuchli dominantlik kuzatildi.

F₁ duragaylarda bir tup o'simlikdagi dukkaklar sonining irsiylanishini tahlil qilinganda, KR21-MUNGPYT-IR-13 x Durdona duragay kombinatsiyada bir tup o'simlikdagi donlar soni o'rtacha qiymat 107±0,7 dona, (hp=28,5), KR21-MUNGPYT-IR-17 x Durdona duragay kombinatsiyada o'rtacha qiymat 56±0,8 dona (hp=17) ko'rsatkichi kuchli dominantlik irsiylanganligi kuzatildi. F₁ KR21-

MUNGPYT-IR-14 x Durдона duragay kombinasiyadan olingan avlodning o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi $54 \pm 0,1$ bo‘lib ($hp=11$) kuchli dominant mavjudligi aniqlandi. F_1 KR21-MUNGPYT-IR-19 x Durдона duragay kombinasiyadan olingan o‘rtacha qiymat $84 \pm 0,7$ dona, ($hp=9,3$), F_1 KR21-MUNGPYT-IR-11 x Durдона duragay kombinasiyadan olingan o‘rtacha qiymat $76 \pm 0,9$ donani tashkil etib, ($hp=8,3$) ko‘rsatkichi kuchli dominantlik holatida bo‘lganligi aniqlandi (1-jadval).

1- jadval

F_1 duragaylarda bir tup o‘simlikdagi dukkaklar soni belgisining irsiylanishi (Qarshi, 2022-y.).

T/r	Duragaylar	Bir tup o‘simlikdagi dukkaklar soni, dona				
		Ota-ona shakllar		F_1	V %	hp
		♀	♂			
1	Durдона x Qahrabo	48	51	$51 \pm 0,10$	5,7	1
2	KR21-MUNGPYT-IR-12 x Durдона	50	48	$46 \pm 0,8$	1,2	-3
3	Qahrabo x Radost	51	57	$65 \pm 0,9$	1,4	3,7
4	Qaxrabo x Marjon	51	44	$37 \pm 0,6$	7,2	-3
5	KR21-MUNGPYT-IR-06 x Durдона	46	48	$47 \pm 0,6$	7,7	0
6	KR21-MUNGPYT-IR-11 x Durдона	54	48	$76 \pm 0,9$	12	8,3
7	KR21-MUNGPYT-IR-13 x KR21-MUNGPYT-IR-35	52	57	$56 \pm 0,7$	9,8	0,6
8	KR21-MUNGPYT-IR-13 x Durдона	52	48	$107 \pm 0,7$	10,4	28,5
9	Marjon x Osiyo	44	51	$57 \pm 0,1$	12,2	2,7
10	KR21-MUNGPYT-IR-14 x Durдона	49	48	$54 \pm 0,1$	11,9	11
11	KR21-MUNGPYT-IR-35 x Durдона	57	48	$63 \pm 0,9$	12,2	2,3
12	KR21-MUNGPYT-IR-15 x Durдона	51	48	$54 \pm 0,8$	10,7	3
13	KR21-MUNGPYT-IR-17 x Durдона	47	48	$56 \pm 0,8$	10,8	17
14	KR21-MUNGPYT-IR-37 x KR21-MUNGPYT-IR-35	52	57	$61 \pm 0,7$	8,7	2,6
15	KR21-MUNGPYT-IR-37 x Radost	52	57	$47 \pm 0,10$	4,4	-3
16	Radost x Durдона	57	48	$56 \pm 0,6$	1,3	0,8
17	KR21-MUNGPYT-IR-19 x Durдона	55	48	$84 \pm 0,7$	9,7	9,3
18	KR21-MUNGPYT-IR-35 x Qahrabo	57	51	$63 \pm 0,6$	8,3	3
19	Baraka x Durдона	53	48	$46 \pm 0,5$	7	-1,8
20	Marjon x KR21-MUNGPYT-IR-11	44	54	$60 \pm 0,7$	8,6	2,2

Olib borilgan 2023-yilda tadqiqodlarda moshning “Durдона”, “Qahrabo” kabi bir qancha navlar va “KR21-MUNGPYT-IR” seleksiya raqamiga ega bo‘lgan tizmalar birgalikda va “Durдона x Qahrabo” hamda “KR21-MUNGPYT-IR-13 x KR21-MUNGPYT-IR-35” kabi ikkinchi avlod (F_2) duragay kombinatsiyalar sinovdan o‘tkazildi. Bunda pishish muddatigacha bo‘lgan ($51,0-55,0$; $55,0-60,0$; $60,0-65,0$; $65,0-70,0$; $70,0-75,0$; $75,0-80,0$; $80,0-85,0$; $85,0-90,0$) kunlar oraliqlarda har bir nav va duragay avlod o‘simliklarning foizda ajratib olinib tahlil qilingan.

Moshning ikkinchi avlod (F_2) duragaylaridan Durдона x Qahrabo duragay kombinatsiyada pishishgacha bo‘lgan kunning o‘zgaruvchanlik ko‘lami $56,0-60,0$ kungacha bo‘lgan oraliqda 3,2%, $61,0-65,0$ kun gacha bo‘lganlari 3,1%, $66,0-70,0$ kun oraliqda 17,5%, $71,0-75,0$ kun gacha bo‘lgan oraliqda 34,4%, $76,0-80$ kun gacha

bo‘lgan oraliqda 22,5%, 80,0-85,0 kun gacha bo‘lgan oraliqda 8,7% va 85,0-90,0 kun gacha bo‘lgan oraliqda 10,6% gacha ota-ona shaklidan erta, o‘rta va kech pishganligi kuzatildi. Belgilarning o‘rtacha ko‘rsatkichi $90,0 \pm 0,42$ foizni tashkil etib variatsiya koeffitsiyenti 8,2 foizni, belgilarning irsiylanishi ($h^2=0,76$) bu esa ota-ona shakillaridan o‘zgaruvchanlik darajasi va genotipik tashqi muhit ta‘siriga nisbatan yuqoriroq bo‘lganligi aniqlangan (2-jadval).

2-jadval

Moshning F₂ o‘simliklarida pishishgacha bo‘lgan kun belgisining o‘zgaruvchanlik ko‘lami va nasldan-naslga berilishi (Qarshi, 2023-y.).

Nav va tizmalar va F ₂ duragaylari	O‘simlik soni, dona	Pishishgacha bo‘lgan kun %								x±Sx	V %	h ²
		51,0-55,0	56,0-60,0	61,0-65,0	66,0-70,0	71,0-75,0	76,0-80	80,0-85,0	85,0-90,0			
Durdona	20				23,3	16,7	60,0			76,6±0,28	3,1	
Qahrabo	20				31,2	36,6	32,2			84,8±0,49	2,5	
KR21-MUNGPYT-IR-06	20				59,3	20,0	20,7			74,1±0,35	2,5	
KR21-MUNGPYT-IR-11	20				6,7	63,3	30,0			73,0±0,70	3,2	
KR21-MUNGPYT-IR-13	20				53,3	46,7				81,1±0,75	3,0	
KR21-MUNGPYT-IR-35	20					33,3	66,7			73,7±0,60	3,1	
Durdona x Qahrabo	100		3,2	3,1	17,5	34,4	22,5	8,7	10,6	90,0±0,42	8,2	0,76
KR21-MUNGPYT-IR-06 x Durdona	100		1,9	3,8	24,4	27,5	26,9	10,0	5,6	78,1±0,59	7,7	0,66
KR21-MUNGPYT-IR-11 x Durdona	100	1,5	3,1		17,5	32,5	30,6	6,6	8,1	80,4±0,38	7,5	0,74
KR21-MUNGPYT-IR-13 x Durdona	100	1,9	4,0		13,1	33,1	33,8	2,9	11,3	85,8±0,41	7,1	0,73
KR21-MUNGPYT-IR-35 x Durdona	100		1,9	0,9	23,1	35,0	30,3	4,8	4,0	71,9±0,23	5,6	0,71
KR21-MUNGPYT-IR-13 x KR21-MUNGPYT-IR-35	100			1,9	28,8	6,3	28,8	8,8	5,6	77,8±0,38	6,2	0,71
KR21-MUNGPYT-IR-35 x Qahrabo	100		2,5	10,6	3,1	28,1	11,3	17,5	6,9	80,0±0,70	8,2	0,74
Qahrabo x KR21-MUNGPYT-IR-06	100		3,1	1,9	29,8	30,4	21,1	9,3	4,4	78,4±0,50	6,3	0,63
Qahrabo x KR21-MUNGPYT-IR-11	100		3,1	1,3	16,9	39,4	22,5	5,6	11,3	75,5±0,41	6,8	0,63
Qahrabo x KR21-MUNGPYT-IR-13	100	1,6	2,5	1,7	21,9	30,6	15,2	15,9	10,6	77,8±0,24	8,5	0,72
KR21-MUNGPYT-IR-13 x KR21-MUNGPYT-IR-11	100		1,6	2,6	18,3	32,5	26,1	8,7	10,3	76,2±0,60	7,5	0,74
KR21-MUNGPYT-IR-13 x KR21-MUNGPYT-IR-06	100		1,2	5,6	31,6	23,8	8,4	19,4	19,4	72,1±0,33	7,8	0,78

Dissertatsiyaning “**Moshning issiqlikka chidamli, hosildor va oqsil miqdori yuqori tizmalarining seleksiya bosqichlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida seleksiya ko‘chatzorida nav va tizmalarni qimmatli-xo‘jalik belgi xususiyatlari bo‘yicha har tomonlama o‘rganilib guruhlariga ajratib olingan. Dastlabki nav sinash ko‘chatzorida nav va tizmalarining erta pishishi, hosildorligi, issiqlikka chidamli hamda oqsil miqdori yuqoriligi bo‘yicha namunalar tanlab olindi. Tanlov sinovi ko‘chatzorida nav va tizmalarining o‘suv davri davomiyligi issiqlikka chidamligi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, hosildorligi bo‘yicha va oqsil midor ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan tizmalar tanlab olingan. Nav va tizmalarida qimmatli xo‘jalik belgilarning o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi tahlil qilingan. Tanlov sinovi ko‘chatzorida nav va tizmalarining issiqlikka chidamligi hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha (GGE biplot tahlil usuli) yordamida aniqlangan.

2021-yilda o‘rganilgan seleksiya ko‘chatzorining 50 ta mosh nav va tizmalarining pishishgacha bo‘lgan kun, o‘simlik bo‘yi, dukkak uzunligi, bir tup o‘simlikdagi dukkaklar soni, hosildorlik va issiqlikka chidamligini aniqlash uchun

o‘simlik barg tarkibidagi oqsil koagulyatsiyalanish harorati kabi qimmatli xo‘jalik belgi va xususiyatlariga qarab guruhlariga ajratildi.

Moshning nav va tizmalarda pishishgacha bo‘lgan 60-70 kun 1 ta, 71-80 kunda 26 ta, 81-90 kunda 15 ta va 91 kunda yuqori bo‘lgan 8 ta, ya‘ni erta, o‘rata va kechpishar nav va tizmalarni guruhlariga ajratib olindi.

O‘rganilgan nav va tizmalarning kalta, o‘rta va uzun bo‘yli toifadagi o‘simliklarga (30-50 sm) 13 ta, (51-70 sm) 32 ta va 71 sm dan yuqori bo‘lgan 5 ta tizmada tashkil qilganligi kuzatildi.

Dukkak uzunligi turli o‘lchamlar oralig‘ida guruhlandi bunda 1-4 sm toifaga hech qanday nav va tizma kirmadi, 5-8 sm bo‘lgan 36 ta, 9 sm va undan yuqori bo‘lgan 14 ta nav va tizmalar aniqlandi.

Bir tup o‘simlikdagi dukkaklar soni tahlil qilinganda, ya‘ni 10-30 dona dukkaklar soniga ega bo‘lgan tizmalar orasida uchramadi, 31-60 dona oralig‘idagi bo‘lgan 47 ta va 61 donadan yuqori bo‘lgan 3 ta nav va tizmalar borligi aniqlandi.

3-jadval

Seleksiya ko‘chatzoridagi mosh nav va tizmalarning qimmatli belgi xususiyatlariga ko‘ra tavsiflanishi (Qarshi, 2021-y.).

Mahsildorlik ko‘rsatkichlari	Baholash mezonlari	Nav va tizmalar soni
Pishishgacha bo‘lgan kun	60-70 kun	1
	71-80 kun	26
	81-90 kun	15
	91<	8
O‘simlik bo‘yi, sm	Kalta bo‘yli (30-50 sm)	13
	O‘rta bo‘yli (51-70 sm)	32
	Uzun bo‘yli (71 sm dan yuqori)	5
Dukkak uzunligi, sm	1-4	-
	5-8	36
	9<	14
Bir tup o‘simlikdagi dukkaklar soni, dona	10-30	-
	31-60	47
	61<	3
Hosildorlik, s/ga	30,1<	-
	20,1-30,0 s/ga	24
	10,1-20,0 s/ga	20
	<10,0 s/ga	6
O‘simlik bargdagi oqsil koagulyatsiyalanishi, °C	0-20 °C	-
	21-40 °C	18
	41-60 °C	21
	60< °C	11


Tadqiqotlarda hosildorligi 10,0 s/ga dan kam bo‘lgan 6 ta nav va tizmalar borligi aniqlandi. Hosildorligi 10,1-20,0 s/ga oralig‘ida bo‘lgan 20 ta nav va tizmalar aniqlanib, ular o‘rtacha mahsuldorlik toifasiga kiradi. Hosildorligi 20,1-30,0 s/ga bo‘lgan 24 ta nav va tizmalar nisbatan yuqori mahsuldorlikka ega bo‘lganligi aniqlandi.

O‘rganilgan seleksiya ko‘chatzoridagi 50 ta nav va tizmalarda issiqlikka chidamligini aniqlash uchun o‘simlik barglaridagi oqsillarning koagulyatsiya harorati bo‘yicha, 0-20 °C oralig‘ida hech bir nav va tizmada bunday past haroratda

koagulyatsiyalanuvchi oqsillar aniqlanmadi. 21-40 °C harorat oralig‘ida esa 18 ta tizmada past koagulyatsiya haroratiga ega oqsillarga ega ekani aniqlandi. 41–60 °C diapazonda ko‘pchilik, ya‘ni 21 ta nav va tizmalarda o‘rtacha haroratda koagulyatsiyalanuvchi oqsillar mavjud bo‘lib, ular nisbatan barqaror hisoblanadi. 60 °C dan yuqori haroratda koagulyatsiyalanadigan oqsillarga ega bo‘lgan 11 ta nav va tizmalar aniqlanib, bu ularning yuqori haroratga nisbatan chidamliligi bo‘yicha tanlab olgan (3-jadval).

O‘rganilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra moshning dastlabki nav sinash ko‘chatzori nav va tizmalarida pishishgacha bo‘lgan kunni tahlil qilinganda 2022 yil bo‘yicha o‘rtacha 71-92 kun oralig‘ida bo‘lganligi tahlillar natijasida aniqlandi.

Andoza Durдона navida o‘sov davri 77 kun tashkil etgan bo‘lsa. Andoza naviga nisbatan qaytariqlar bo‘yicha tahlil qilinganida o‘rtacha 10 ta tizmada 76-71 kun ya‘ni, 5-6 kun erta muddatda bo‘lsa, barcha nav va namunalar orasidan faqatgina 2 ta KR21-MUNGPYT-IR-27, KR21-MUNGPYT-IR-46 tizmalarda 71 kunda, 3 ta KR21-MUNGPYT-IR-33, KR21-MUNGPYT-IR-35, KR21-MUNGPYT-IR-39 tizmalar 72 kunda tashkil etib andoza navidan 5-6 kun farq bilan erta muddatda to‘liq pishib yetilganligi aniqlandi va tanlab olingan (1-rasm).



1-rasm: Moshning dastlabki nav sinash ko‘chatzorida ertapishar nav va tizmalarini tanlash (Qarshi, 2022-y.).

O‘rganilgan moshning dastlabki nav sinash ko‘chatzorida o‘rganilgan moshning 20 ta nav va tizmalari donining texnologik sifat ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi. 1000 dona don vazni o‘rtacha 55,3 g dan 58,8 g gachani tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich andoza “Durдона” navida 56,3 g ni tashkil etgan bo‘lsa, andoza navga nisbatan KR21-MUNGPYT-IR-35, KR21-MUNGPYT-IR-32, KR21-MUNGPYT-IR-31, KR21-MUNGPYT-IR-19, KR21-MUNGPYT-IR-48 tizmalarda 1,1-2,6 g yuqori ekanligi aniqlandi.

Mosh dastlabki nav sinash ko‘chatzorida nav va tizmalari hosildorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilindi. Bunda KR21-MUNGPYT-IR-35, 1000 dona don vazni 58,9 g va KR21-MUNGPYT-IR-32 (58,0 g) kabi nav va tizmalar eng yuqori hosil va eng yaxshi donlarni ta‘minlaydi. Minimal qayd etilgan eng past mahsuldorlik KR21-MUNGPYT-IR-33 da ko‘rilgan 17,9 s/ga. Maksimal qayd etilgan eng KR21-MUNGPYT-IR-35 da kuzatilgan eng yuqori mahsuldorlik 23,0


s/ga ni tashkil qilib, ya'ni yuqori mahsuldorligi donning og'irligi va dukkakli soni bo'yicha kuchli xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan.

KR21-MUNGPYT-IR-32 tizma hosildorlik 21,6 s/ga, yuqori ko'rsatkichni tashki qildi. KR21-MUNGPYT-IR-39 tizma 21,5 s/ga bilan u kuchli hosil olish qobiliyatini ko'rsatib, hosildorlik bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi. KR21-MUNGPYT-IR-48 va KR21-MUNGPYT-IR-31: Ikkala tizma ham 21,0 s/ga dan bir oz yuqori hosildorlikni beradi va bu ularni eng samarali variantlar qatoriga kiritilgan.

KR21-MUNGPYT-IR-27 20,9 s/ga ga erishgan bu tizma ayniqsa, donning og'irligi va dukkaklar sonini hisobga olgan holda yaxshi natija olingan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, moshning tanlov sinov ko'chatzoridagi nav va tizmalarining 1000 dona don vazni ko'rsatkichi tahlil qilinganda qaytariqlar bo'yicha o'rtacha, 54-56,5 g gacha bo'lganligi aniqlangan (2-rasm).

Andoza "Durдона" navida 1000 dona don vazni $54,9 \pm 1,1$ g ni tashkil etgan. Andoza naviga nisbatan 1000 dona don vazni yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan quydagi tizmalar KR21-MUNGPYT-IR-48 ($56,4 \pm 0,9$ g), KR21-MUNGPYT-IR-27 ($56,4 \pm 0,9$ g), KR21-MUNGPYT-IR-35 ($56,4 \pm 1,0$ g), KR21-MUNGPYT-IR-32 ($56,5 \pm 0,8$ g), KR21-MUNGPYT-IR-31 ($56,2 \pm 0,7$ g) bo'lganligi aniqlandi.



2-rasm: Moshning dastlabki nav sinash ko'chatzoridagi nav va tizmalarining 1000 dona don vazni va hosildorli ko'rsatkichi (Qarshi, 2022-y.)


Olib borilgan ilmiy izlanishlarda moshning tanlov sinovi ko'chatzorida nav va tizmalarining 2021-2023 yillar davomida hosildorlik ko'rsatkichi 17,3-22,0 s/ga bo'lganligi aniqlandi. Andoza "Durдона" navi o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichi 17,8 s/ga tashkil etgan bo'lsa, andoza navidan va tizmalardan hosildorlik ko'rsatkichi nisbatan yuqori bo'lgan 6 ta tizmalarda KR21-MUNGPYT-IR-19 (19,1 s/ga), KR21-MUNGPYT-IR-27 va KR21-MUNGPYT-IR-31 (20,0 s/ga), KR21-MUNGPYT-IR-32 va KR21-MUNGPYT-IR-48 (20,6 s/ga), KR21-MUNGPYT-IR-35 (Zumrat) navi (22,0 s/ga) don hosildorligi bo'yicha ushbu tizmalar tanlab olingan (4-jadval).

Moshning tanlov sinov ko'chatzoridagi nav va tizmalarning hosildorlik, don sifat ko'rsatkichlar va o'simlik bargdagi oqsil koagulyasiyalanishi tahlil (Qarshi, 2021-2023-yy.).

